

№ 7/42026 y. 29 yanvar

**“O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki
tizimida mijozlarning kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish
va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) yuzasidan arizalarini
ko‘rib chiqish tartibi”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 9-oktabrdagi 25/1-sonli qaroriga asosan (ro‘yxat raqami 3030-11, 28.10.2025-y.) Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risidagi nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan.

Jumladan, moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida kredit to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan iste‘molchilarning amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko‘rib chiqish tartibiga ega bo‘lishi va ushbu tartibni bankning rasmiy veb-saytida joylashtirishi shartligi qayd etilgan.

Bank tomonidan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, mijozlarga qulayliklar yaratish maqsadida, bank Boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan ichki qoidalarining amaldagi qonunchilikka mosligini ta‘minlash bo‘yicha Ekspert guruhining 2026-yil 28-yanvardagi 6-sonli bayoni ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida mijozlarning kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) yuzasidan arizalarini ko‘rib chiqish tartibi” (keyingi o‘rinlarda – Tartib) **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. **Jismoniy shaxslarning muammoli kreditlari bilan ishlash departamenti** (A. Xushmatov) va **“Hard collection” departamenti** (K. Turdiyev) zimmlariga ushbu Tartib talablari ijrosini to‘g‘ri va samarali tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

4. **Ijro nazorati departamenti** (F. Kurbanov) mazkur qaror nusxasini bank markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmalari va bankning mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlariga ma‘lumot va ijro uchun yetkazilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish **Boshqaruv Raisi o‘rinbosari v.b. D. Mamatkulov** zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv Raisi v.b.



Sh. Atabayev

**O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida mijozlarning
kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish
(restrukturizatsiya) yuzasidan arizalarini ko'rib chiqish
TARTIBI**

Mazkur "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida mijozlarning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) yuzasidan arizalarini ko'rib chiqish tartibi" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 28-oktabrda 3030-11-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 9-oktabrdagi 25/1-sonli "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori va Bankning amaldagi Kredit siyosatiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan mijozlarning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan mijozlarning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) imkoniyatlari borasidagi arizalarini ko'rib chiqish - shartnoma va (yoki) unga qo'shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlar o'zgartirilgan kreditlar shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar hisoblanadi.

2. Mazkur tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Bank – amaldagi Kredit siyosatiga asosan qaror qabul qilishga vakolatli organ – Bank boshqaruvi, mintaqaviy markazlari va bank xizmatlari markazlaridagi kredit komissiyalari/anderrayterlar/Kredit qo'mitasi/Bank Kuzatuv kengashi;


Moliyaviy qiyinchiliklar – shaxs, oila, korxona yoki davlatning daromadlari xarajatlarni qoplamay qolgani, yoki qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy holat;

Murakkab hayotiy vaziyatlar – odatiy hayot tarzi buzilib, mustaqil ravishda qiyinchilikni yengib o'ta olmaydigan, jismoniy, ruhiy, ijtimoiy yoki moddiy jihatdan og'ir holatga tushib qolishiga sabab bo'ladigan holatlar;

Restrukturizatsiya – bu qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tiklash hamda Bank kredit tavakkalchiligi (riski)ni saqlagan yoki kamaytirgan holda qarzdorlikni qaytarishni ta'minlash maqsadida kredit majburiyatining dastlabki shartlarini qo'shimcha kelishuv orqali o'zgartirishdir. Restrukturizatsiyaning maqsadi mijozning moliyaviy holatini barqarorlashtirishdir;

Baholash mezonlari – natija, faoliyat yoki holatni aniq va xolis baholash uchun qo'llanadigan ko'rsatkichlar va talablar majmuasidir;

Kredit shartnomasi – shartnoma bo'yicha bir taraf - bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor), ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi;



Tarkibiy bo'linma – mazkur tartibga aloqador bo'lgan Kreditlar monitoringi, “Hard collection”, Jismoniy shaxslarning muammoli kreditlari bilan ishlash departamentlari va unga tegishli boshqarmalar hisoblanadi.

2-§. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish asoslari va (restrukturizatsiya) turlari

3. Shartnoma va (yoki) unga qo'shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlar o'zgartirilgan kreditlar shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar hisoblanadi.

4. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning (restrukturizatsiya) turlari:

kredit qaytarish muddatini uzaytirish;

kredit foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish;

kredit to'lovlari sababli kechiktirganlik uchun jarima va penyalari miqdorini kamaytirish.

5. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga (restrukturizatsiyaga) asos bo'ladigan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlar ro'yxati:

1) Yuridik shaxslar uchun:

- a) Aylanma mablag' yetishmovchiligi;
- b) Investitsiya loyihasi asosli sabab (pandemiya, chet eldan importning yetib kelishining kechikishi va boshqa) larga ko'ra ishga tushmasligi;
- c) Asosli sabab (hujjat bilan bog'liq, kotlovandan to'xtovsiz suv chiqishi va boshqa) larga ko'ra qurilish yoki montaj ishlari to'xtab qolishi;
- d) Fors-major holatlar (tabiiy ofat, sel, suv toshqini, qurg'oqchilik, yong'in, pandemiya, sanksiyalar).

2) Jismoniy shaxslar uchun:

- a) Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik (2 oydan ortiq);
- b) Ish joyi yo'qolib, bandlik organlarida ro'yxatga olinsa;
- c) Turmush o'rtog'i (kafil yoki birgalikda qarz oluvchi) vafot etgan bo'lsa;
- d) Qarz oluvchining o'ziga I-II guruh nogironlik belgilansa (kredit rasmiylashtirilguniga qadar nogironligi bo'lgan shaxslar bundan mustasno);
- e) Tabiiy yoki texnogen favqulodda vaziyatlar;
- f) Homiladorlik va tug'ish ta'tilini olgan ayollar (to'lovlar muddatini o'n oygacha uzaytirish).

6. Kredit shartnomasining quyidagi asosiy shartlari o'zgartirilganda, shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar hisoblanadi:

foiz stavkasining pasaytirilishi (shartnomada belgilangan o'zgaruvchan foiz stavkasi pasayishi munosabati bilan foiz stavkasining pasaytirilishi holatlari bundan mustasno);

kreditning asosiy qismi va/yoki foizlarini to'lash muddati kechiktirilishi yoki uzaytirilishi (mijozni moliyalashtirishni boshlash muddati o'zgarishi hisobiga to'lov grafigini yoki to'lovlar to'lanadigan oy ichida to'lov sanasini o'zgartirilishi bundan mustasno);

ta'minot turining o'zgartirilishi (kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta'minotdan chiqarilgan hamda aktiv summasining garov summasiga nisbati bankning ichki hujjatlarida ko'rsatilgan chegaradan ko'p bo'lmagan holatlar bundan mustasno);

foizlarni kapitalizatsiya qilinishi (kredit shartnomasida belgilangan holatlar bundan mustasno);

mazkur bandlarda ko'rsatilgan shartlardan birini yoki bir nechtasini qo'llagan holda qarz oluvchining o'zgartirilishi.

7. Quyidagi hollarda shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish taqiqlanadi:

kredit mablag'lari maqsadsiz ishlatilgan deb topilganda (bunda ajratilgan kredit mablag'i muddatidan oldin undirishga qaratiladi);

muddati o'tgan sug'urta polislari, kredit uchun qo'yilgan ta'minotga moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa hamda kredit shartnomasining qarz oluvchi tomonidan bajarilmagan shartlari mavjud bo'lgan kreditlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qarzdorga ajratilgan kredit yuzasidan jinoyat alomatlari bor deb topilgan kreditlar;

xalqaro moliya institutlari va boshqa jamg'armalardan jalb qilingan mablag'lar muddatiga mos muddatlarga moliyalashtirilgan kreditlar (xalqaro moliya institutlari va jamg'armalar bilan tuzilgan shartnomada shartlarni o'zgartirish bo'yicha qo'shimcha shartnoma mavjud bo'lganda va bank mijozlari tomonidan kreditning uzaytirilgan muddatiga foiz stavkasi bankning amaldagi foiz tariflari bo'yicha hisoblanishiga rozilik bergan holatlar bundan mustasno);

ajratilgan kredit bo'yicha vakolatli organ qarorida keltirilgan dastlabki shartlar (kredit hisobiga sotib olinadigan ko'char va ko'chmas mulklarni garovga qo'yish, qo'shimcha kafillik rasmiylashtirish va boshqa shartlar) asossiz ravishda bajarilmagan hollarda;

ishonchli kreditlar;

ish haqi to'lovlarini to'lash uchun berilgan kreditlar;

uzaytirish muddati davomida aniq to'lov manbalari mavjud bo'lmagan kreditlar.

3-§. Mijoz arizasini qabul qilish, ko'rib chiqish va baholash mezonlari, ariza bo'yicha bank tomonidan qabul qilingan qaror haqida mijozga xabar berish tartibi va muddati

8. Mijoz arizasini qabul qilish tartibi:

mijoz joylardagi bank xizmatlari markaziga ariza orqali murojaat qiladi;

qarzdor tomonidan kredit qarzdorligi bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan bank xizmatlar markaziga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

a) Qarzdor tomonidan kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan batafsil sabablari ko'rsatilgan ariza;

b) Tartibning 5-bandida keltirilgan asoslardan biri;

c) Kreditni shartlari qayta ko'rib chiqilishi natijasida kutiladigan moliyaviy ko'rsatkichlar, qaytarishning real manbalari, shu jumladan pul oqimlari va boshqa ma'lumotlar aniq ko'rsatilgan loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari (biznes-rejasi yuridik shaxslar uchun);

d) Oxirgi hisobot sanasiga buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalari to'g'risida hisobotlari (kafil korxonaning ham agar kafillik shartnomasi mavjud bo'lsa);

e) Korxonaning ustav nusxasi (ustavga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilganda hamda yangi ustav qabul qilinganda);

f) Ta'sischilarining roziligi bo'yicha umumiy yig'ilish bayonnomasi;

g) Mijozning boshqa banklardagi majburiyatlari bo'yicha ma'lumotnoma;

h) Kredit ta'minoti to'g'risida hujjatlar;

i) Garov egalari va kafil tashkilot ta'sischilarining roziligi (kreditning oxirgi muddati o'zgartirilganda);

j) Ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish to'g'risidagi shartnomalar.

9. Arizalarni ko'rib chiqish muddatlari:

Bank tomonidan ariza o'rnatilgan tartibda amaldagi qonunchilik hamda bank ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi lozim, qo'shimcha hujjatlar talab etilgan holda mijozga xabar qilinadi hamda bank quyidagi holatlarda ko'rib chiqish muddatini uzaytirishi mumkin.

Bank o'zining moliyaviy holati, resurs mablag'laridan kelib chiqib kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish uchun kelib tushgan arizalarni rad etishi va/yoki qisman qanoatlantirishi mumkin.

Davlat organlaridan ma'lumot kutilayotganda, sug'urta yoki baholovchi xulosasi kerak bo'lganda, ko'zda tutilmagan boshqa fors-major holatlar sodir bo'lganda.

10. Qabul qilingan arizalarni ko'rib chiqish va baholash mezonlari:

Bank xizmatlari markazining tegishli (monitoring yoki muammoli kreditga aloqador) xodimi arizani qabul qiladi hamda sana va vaqtni belgilaydi va arizani ro'yxatga olib, mijozga ariza qabul qilingani haqida xabar beradi;

arizaning to'g'ri rasmiylashtirilganligi, namunaviy shaklda tuzilganligi, imzo va sana mavjudligi, kredit shartnomasi ma'lumotlari to'g'ri ko'rsatilganligi va kredit muddatini uzaytirish uchun asoslantiruvchi barcha zaruriy hujjatlar to'liqligi, hujjatlarning amal qilish muddati o'tmaganligi to'g'risidagi mezonlar ko'rib chiqiladi.

ariza va hujjatlar kredit yig'majildiga biriktiriladi. Bank xizmatlar markazi boshqa hujjatlarni talab qilishga haqli.

11. Mintaqaviy markazdagi tegishli kredit komissiyasi xulosasida quyidagi ma'lumotlar aks ettirilgan bo'lishi lozim:

ajratilgan kredit to'g'risida batafsil ma'lumot (maqsadi, ajratilishiga asos (qaror va topshiriqlar, davlat dasturlari, vakolatli organ qarorlari, kredit shartnomasi va boshqalar), summasi, foizi, muddati va boshqalar hamda ushbu tartibning 5-bandida ko'rsatib o'tilgan holatlar bo'yicha aniq ma'lumotlar va unga asoslantiruvchi hujjatlar;

kredit shartnomasi bo'yicha belgilangan shartlarni qarzdor tomonidan bajarilishi (kredit hisobiga sotib olingan mulk garovga qo'yilganligi va boshqalar);

loyihaning hozirgi holati (joriy ishlab chiqarish quvvati, asbob-uskunalarining holati va boshqa) bo'yicha to'liq ma'lumot;

loyiha ishga tushmagan hollarda uning sabablari;

dastlabki biznes reja tahlili (haqiqatda ishlab chiqarish va sotish hajmi) pul oqimlari, loyihaning ishga tushish davri;

loyihaning yangi biznes reja tahlili (taklif qilinayotgan to'lov grafigiga asosan);

kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishning asosli sabablari;

oxirgi hisobot davriga buxgalteriya va moliyaviy natijalari tahlili;

garov ta'minoti to'g'risida ma'lumot (mulk egasi, joylashgan joyi, garov qiymati, sug'urtalanganligi va uning muddati);

garov mulki almashtirilgan yoki qisman garovdan chiqarilgan bo'lsa, asosli hujjatlar (vakolatli organ qarori) va garov hujjatlariga kiritilgan tegishli o'zgarishlar;

bank hamda budjet va boshqa tashkilotlar oldidagi qarzdorliklari to'g'risida ma'lumot;

mavjud shartnomalar to'g'risida ma'lumot (xomashyo sotib olish va tayyor mahsulot sotish bo'yicha);

loyihaga oid boshqa ma'lumotlar.



12. Qarzdor tomonidan mazkur tartibning 10-bandida ko'rsatilgan hujjatlar to'plami to'liq taqdim etilgandan so'ng, mintaqaviy markazning mas'ul xodimi ushbu hujjatlarni va qarzdorning faoliyatini joyiga chiqqan holda o'rganadi va natijasi yuzasidan shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha asoslantirilgan xulosa tayyorlaydi hamda mintaqaviy markazi kredit komissiyasiga ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun taqdim qiladi.

13. Mintaqaviy markaz kredit komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilinganda 10-bandda ko'rsatilgan barcha hujjatlar to'plamiga mintaqaviy markazning tegishli bo'limi xulosasiga asosan mintaqaviy markaz Kredit komissiyasi o'zining vakolati doirasida qaror qabul qiladi va barcha hujjatlar, xulosalar va Kredit komissiyasi qarorini mintaqaviy markaz rahbari tomonidan imzolangan xat orqali dasturiy ta'minot tizimidan bank Boshqaruvining tegishli tarkibiy bo'linmasiga yuboradi.

14. Mintaqaviy markaz kredit komissiyasi tomonidan qarzdor mijozning kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq emas deb topilganda, mijozga bu haqda asoslantirgan holda yozma shaklda ma'lum qiladi.

15. Bank boshqaruvining tegishli tarkibiy bo'linmalari barcha hujjatlarni o'rganib, jumladan qarzdorning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini, loyihaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining yomonlashuv sabablari, qaytarishning real manbalarini tahlil qiladi hamda o'rganish va tahlil natijasi bo'yicha xulosa tayyorlaydi.

16. Ayrim hollarda, bank Boshqaruvining muammoli aktivlari bilan ishlash qo'mitasi tomonidan mintaqaviy markazga uning vakolatidan yuqori bo'lgan kreditlar shartlarini qayta ko'rib chiqish va qaror qabul qilish yuzasidan bir martalik vakolat berishi mumkin.

17. Bank boshqaruvining muammoli aktivlar bilan ishlash qo'mitasi muhokamaga kiritilgan hujjatlarni o'rganib chiqib, ijobiy va/yoki salbiy qaror rasmiylashtiradi va ijro uchun tegishli mintaqaviy markazga yuboradi.

18. Tegishli (muammoli kreditlar bilan ishlash) tarkibiy bo'linmasi tomonidan hujjatlarda kamchiliklar aniqlanganda yoki mazkur Tartib/amaldagi hujjatlar talablariga zid bo'lgan holatlar aniqlanganda, ushbu kredit murojaati bo'yicha kamchiliklarni ko'rsatgan holda qaytarishga haqlidir.

19. Kreditlar shartlariga o'zgartirish kiritish vakolatli organning tegishli qarori bayonnomasida belgilangan shartlar to'liq bajarilgandan so'ng hamda kredit va garov hujjatlariga bu haqida tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng amalga oshiriladi. Sud hujjati qabul qilingan kreditlar bo'yicha kelishuv bitimini sud tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi. Mazkur shartlarning bajarilishini tegishli kreditlash tarkibiy bo'linmasi nazoratga oladi.

20. Ariza bo'yicha bank tomonidan qabul qilingan qaror haqida mijozga xabar berish tartibi va muddati:


Bank tomonidan ariza va zaruriy hujjatlar ko'rib chiqilganidan so'ng, qaror qabul qilinganda mijozga xabar berish yozma yoki elektron shaklda mintaqaviy markazning tegishli (monitoring yoki muammoli kreditga aloqador) xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

21. Ariza qanoatlantirilgan taqdirda qo'shimcha kredit shartnomasi uning grafigi hamda ilovalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritiladi.

Ariza rad etilgan holatda, rad etilishining asosiy sabablari ko'rsatib o'tiladi va qaror qabul qilinganidan keyin 5 ish kuni ichida mijozga xabar beriladi.

4-§. Kredit shartnomasi hamda uning ilovalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi

22. Kredit shartnomasi hamda uning ilovalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomaga qo'shimcha kelishuv qilinadi.



23. Muammoli kreditlar bilan ishlash bo'limi mas'ul xodimi restrukturizatsiya to'g'risidagi qabul qilingan qaror hamda Bosh bankning ijobiy javob xatini olgan kundan boshlab uch (3) bank ish kuni ichida og'zaki yoki yozma tarzda mijozni xabardor qiladi, bitim sanasini belgilaydi va quyidagi hujjatlarni tayyorlaydi:

- a) amaldagi kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuv;
- b) kafillik/kompensatsiya shartnomasiga qo'shimcha kelishuv;
- c) garov shartnomasiga qo'shimcha kelishuv;
- d) to'lovlar jadvaliga o'zgartirish kiritish;
- e) sug'urta tashkiloti bilan qo'shimcha kelishuvlar tuzish;

f) zarur holatlarda garov mulkining kelishish narxi tomonlar roziligiga asosan kamaytiriladi hamda shartnoma shartlariga qo'shimcha kiritish.

5-§. Tartib talablarining bajarilishi bo'yicha javobgarlik

24. Mazkur tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

25. Tarkibiy bo'linmalar o'z faoliyatlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavflarni oldini olishga qaratilgan quyidagi majburiyatlarni bajarishlari lozim:

ish faoliyati davomida korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishlari hamda o'z huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi qonun normalarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan, davlat va o'zini-o'zi boshqarish organlariga, tijorat tashkilotlariga, jismoniy va yuridik shaxslarga naqd yoki boshqa shaklda pora berishni taklif qilmaslik va amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar;

ish faoliyatini vijdonan va qonuniy ravishda, korporativ etika me'yorlariga rioya qilgan holda olib borishi hamda korrupsiyaga hamda jinoiy xatti-harakatlarning boshqa turlariga nisbatan murosasizlik siyosatiga amal qilishlari;

korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablariga rioya qilishi;

Bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan tanishish va unga amal qilishlari;

qonunbuzilish va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida bankning Komplayens nazorat boshqarmasiga xabar berishlari lozim.

6-§. Yakuniy qoidalar


26. Mazkur me'yoriy hujjat bilan tartibga solinmaydigan masalalar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari va Bankning boshqa ichki hujjatlarida belgilangan tartiblarga muvofiq hal etiladi.

27. Mazkur tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

28. Mazkur tartib Bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanib, ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Tartibga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Kreditlarni boshqarish departamenti tomonidan ishlab chiqiladi va Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

**Jismoniy shaxslarning muammoli kreditlari
bilan ishlash departamenti direktori**

 **A. Xushmatov**

"Hard collection" departamenti direktori

 **K. Turdiyev**

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
tijorat Xalq banki tizimida mijozlarning kredit
shartnomasi shartlariga o'zgartirish va
qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya)
yuzasidan arizalarini ko'rib chiqish tartibiga
1-ilova

KREDITNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH BO'YICHA ARIZA

Xalq bankiga

_____ dan

(FISH)

JISHSHR(PINFL) _____

_____ telefon raqam

_____ yashash manzili

Kreditni qaytarish muddatini kechiktirishni so'rash bo'yicha Ariza

Sizdan 20 ____ yil " ____ " _____ dagi № _____ - sonli kredit shartnomasiga asosan
ajratilgan kredit to'lovlari bo'yicha quyidagi qiyinchiliklar yuzaga kelishi munosabati bilan
ushbu kreditni restrukturizatsiya qilib berishingizni so'rayman.

To'lovlar bo'yicha yuzaga kelgan qiyinchiliklar sababi (hodisa) ko'rsatilsin. Misol
uchun:

1. Bola parvarish ta'tili (Homiladorlik va tug'ruq ta'tilida bo'lgan ayol (qarz oluvchi)
uchun tasdiqlovchi hujjatlar);

2. Ish joyini yo'qotishi (Qarz oluvchining bandlik organlarida ishsiz sifatida ro'yxatga
olinganini hamda mehnat shartnomasining bekor qilinganini tasdiqlovchi hujjatlar);

3. Nogironlik (Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining I yoki II guruh nogironlikka
ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat);

4. Og'ir kasallik Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining og'ir kasalligi (misol uchun:
shifoxona ma'lumotnomasi, onkodispenser xulosasi) va vaqtincha mehnatga layoqatsizligini
tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar);

5. O'lim qarz oluvchining o'limini tasdiqlovchi hujjat (yaqin qarindoshlari tomonidan
o'lim guvohnomasi taqdim etiladi va ariza bilan bankka murojaat qilinadi).

Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqishni va quyidagi restrukturizatsiya
choralarini qo'llashni so'rayman (maqbul variantni tanlang):

(1. Kredit muddatini uzaytirish. 2. Kredit ta'tili berish. 3. Kredit to'lovini grafik ichida
qayta taqsimlash. 4. Kredit foiz stavkalari va penyalarni qayta ko'rib chiqish).

Ilova qilingan hujjatlarning skaner nusxalari ro'yxati (sanab o'ting)

Ushbu arizani imzolash orqali men yangi to'lov jadvali va kechiktirish shartlariga to'liq
roziman.

Garov obyekti bo'yicha shartlar va muddatni o'zgartirish (garov bilan ta'minlangan
kreditlar uchun), shuningdek, kechiktirish muddati tugagandan so'ng, kreditni belgilangan
miqdorda o'z vaqtida to'lash majburiyatini olaman.

Ushbu ariza mening shaxsan qo'lim bilan/imzo qo'yib (elektron raqamli imzodan
foydalanib) tasdiqlayman.

(imzo)

(sana)

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
tijorat Xalq banki tizimida mijozlarning
kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish
va qo'shimchalar kiritish
(restrukturizatsiya) yuzasidan arizalarini
ko'rib chiqish tartibiga
2-ilova

Tasniflash mezonlarini belgilash

Tasniflash			Toifa	Bitim shartlari
T/r	Hodisa	Tasdiqlovchi hujjatlar		
1.	Bola parvarish ta'tili	Homiladorlik va tug'ruq ta'tilida bo'lgan ayol (qarz oluvchi) uchun tasdiqlovchi hujjatlar	I	Qarz oluvchi uchun Bankka murojaat qilishlar soni cheklanmagan; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Kredit davrini uzaytirish muddati 10 oygacha;
2.	Ish joyini yo'qotishi	Qarz oluvchining bandlik organlarida ishsiz sifatida ro'yxatga olinganini va mehnat shartnomasining bekor qilinganini tasdiqlovchi hujjatlar Qarz oluvchining rasmiy daromadlarining 3 oy yoki undan ko'p muddat davomida 50% dan ortiq miqdorda pasayishi.	II	Bankka birlamchi murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Kredit davrini uzaytirish muddati 3 oygacha;
3.	Nogironlik	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining I, II guruh nogironlikka ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat	III	Bankka birlamchi murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Kredit davrini uzaytirish bo'yicha maksimal muddat 6 oygacha;
4.	Og'ir kasallik	Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining og'ir kasalligi (shifoxona ma'lumotnomasi, onkodispenser xulosasi) va vaqtincha mehnatga layoqatsizligini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar	IV	Bankka birlamchi murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Mehnatga layoqatsizlik muddati 2 oydan oshganda; Kredit davrini uzaytirish muddati 3 oygacha;
5.	O'lim	Qarz oluvchining o'limini tasdiqlovchi hujjat (o'lim guvohnomasi)	V	Bankka birlamchi murojaat; Birgalikda qarz oluvchi / qarindosh (merosxo'r) tomonidan Bankka murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Har bir ariza alohida ko'rib chiqiladi, kredit davrini uzaytirish muddati 6 oygacha Majburiyatlar merosxo'rlarga qabul qilingan meros qiymati doirasida o'tadi;
6.	Fors-major (favqulodda vaziyat) holatlari	Favqulodda vaziyatlar vazirligi yoki boshqa vakolatli organlarning rasmiy dalolatnomalari va qarorlari	VI	Oqibatlari Qarzdorning mol-mulkiga zarar yetkazgan va kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalasini ko'rib chiqish uchun asos bo'ladigan yengib bo'lmaydigan kuch holatlari: a) tabiiy hodisalar (zilzila, ko'chki, bo'ron, toshqin va boshqalar); b) texnogen halokatlar (yong'inlar, portlashlar va boshqalar).

Restrukturizatsiya qilish kredit ajratilgandan so'ng hamda yuqoridagi me'zonlar bo'yicha 2 va 4 holatlarda bankka murojaat qilinishidan oldingi 3 (uch) oy davomida sodir bo'lgan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
 tijorat Xalq banki tizimida mijozlarning
 kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish
 va qo'shimchalar kiritish
 (restrukturizatsiya) yuzasidan arizalarini
 ko'rib chiqish tartibiga
 3-ilova

Restrukturizatsiya turlari

(namuna)

Kredit muddatini uzaytirish						
Eski grafik			Yangi grafik			
1.	Sana	To'lov summasi	1.	Sana	To'lov summasi	
2.	Sana	To'lov summasi	2.	Sana	To'lov summasi	
3.	Sana	To'lov summasi	3.	Sana	To'lov summasi	
4.	Sana	To'lov summasi	4.	Sana	To'lov summasi	
5.	Sana	To'lov summasi	5.	Muddati uzaytirilayotgan davr		
6.	Sana	To'lov summasi	6.			
7.	Sana	To'lov summasi	7.			
8.	Sana	To'lov summasi	8.	Sana	To'lov summasi	
9.	Sana	To'lov summasi	9.	Sana	To'lov summasi	
10.	Sana	To'lov summasi	10.	Sana	To'lov summasi	
11.	Sana	To'lov summasi	11.	Sana	To'lov summasi	
12.	Sana	To'lov summasi	12.	Sana	To'lov summasi	
			13.	Sana	To'lov summasi	Kreditning uzaytirilgan yakuniy muddati
			14.	Sana	To'lov summasi	
			15.	Sana	To'lov summasi	

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
tijorat Xalq banki tizimida mijozlarning
kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish
va qo'shimchalar kiritish
(restrukturizatsiya) yuzasidan arizalarini
ko'rib chiqish tartibiga
4-ilova

Restrukturizatsiya turlari.

(namuna)

Kredit ta'tili berish					
Eski grafik			Yangi grafik		
1.	Sana	To'lov summasi	1.	Sana	To'lov summasi
2.	Sana	To'lov summasi	2.	Sana	To'lov summasi
3.	Sana	To'lov summasi	3.	Sana	To'lov summasi
4.	Sana	To'lov summasi	4.	Sana	To'lov summasi
5.	Sana	To'lov summasi	5.	Ta'til berilayotgan davr	
6.	Sana	To'lov summasi	6.		
7.	Sana	To'lov summasi	7.		
8.	Sana	To'lov summasi	8.	Sana	To'lov summasi
9.	Sana	To'lov summasi	9.	Sana	To'lov summasi
10.	Sana	To'lov summasi	10.	Sana	To'lov summasi
11.	Sana	To'lov summasi	11.	Sana	To'lov summasi
12.	Sana	To'lov summasi	12.	Sana	To'lov summasi

Kredit ta'til davridagi to'lovlar ta'til davriga mos ravishda taqsimlanadi

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
 tijorat Xalq banki tizimida mijozlarning
 kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish
 va qo'shimchalar kiritish
 (restrukturizatsiya) yuzasidan arizalarini
 ko'rib chiqish tartibiga
 5-ilova

Restrukturizatsiya turlari.

(namuna)

Kredit to'lovini grafik ichida qayta taqsimlash					
Eski grafik			Yangi grafik		
1.	Sana	To'lov summasi	1.	Sana	To'lov summasi
2.	Sana	To'lov summasi	2.	Sana	To'lov summasi
3.	Sana	To'lov summasi	3.	Sana	To'lov summasi
4.	Sana	To'lov summasi	4.	Sana	To'lov summasi
5.	Sana	To'lov summasi	5.	Muddati qayta taqsimlanayotgan davr	
6.	Sana	To'lov summasi	6.		
7.	Sana	To'lov summasi	7.		
8.	Sana	To'lov summasi	8.	Sana	To'lov summasi
9.	Sana	To'lov summasi	9.	Sana	To'lov summasi
10.	Sana	To'lov summasi	10.	Sana	To'lov summasi
11.	Sana	To'lov summasi	11.	Sana	To'lov summasi
12.	Sana	To'lov summasi	12.	Sana	To'lov summasi

To'lovlar
 qolgan
 oylarga teng
 taqsimlanadi